ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

IZOH TIPIDAGI O'QUV LUG'ATLARDA LEKSIKOGRAFIK SEMANTIZATSIYAGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Sulaymonov Bobir,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Izoh matn (semantizatsiya) – izoh tipidagi o'quv lug'atlarda muhim komponent hisoblanadi. L.A.Novikovning fikricha, «Ma'no – semantikaning asosiy kategoriyasi. So'z ma'nosini ochish – bu mazkur leksik birlikning matndan tashqarida va turli nutqiy qurshovlarda boshqa birliklar bilan munosabatda yuzaga chiqadigan semantik qirralarini ochib berish, matnni uning ma'nosiga va uning matn ma'nosiga ta'sir etish qonuniyatlarini aniqlash demakdir»[1]. Lug'at maqolada izohning qat'iy qolipi mavjud emas, ya'ni lug'at turidan kelib chiqib izohga turlicha talablar qo'yiladi. Masalan:

– **izoh tipidagi o'quv lug'atlarda** bosh so'z yoki jumlaning foydalanuvchining yoshi, u mansub ta'lim bosqichi o'quv vositalari mazmuniga mos ravishda semantik tavsifini berish;

– **terminologik o'quv izohli lug'atlarda** termin vokabulaning adresat – lug'at foydalanuvchi ta'lim mazmuniga mos ilmiy ta'rifi, o'quv-metodik tavsifini berish;

– **ikki yoki ko'p tilli izohli o'quv lug'atlarda** lug'at chap qismiga oid xorijiy so'zning ona tilidagi tarjima muqobilini topish;

– **ensiklopedik o'quv lug'atlarda** bosh so'zga aloqador tarixiy voqealar, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida hodisa sifatida tushuncha berish;

– **semonimik lug'atlarda** bir so'zdan iborat bosh so'z emas, ma'no yoki shakl munosabatiga ko'ra yaqin bo'lgan ikki yoki undan ortiq so'zni bir joyda to'plab izohlash va hk.

Ma'lumki, o'quv izohli lug'atlarda har bir so'zning leksikografik talqini zamonaviy antropotsentrik leksikografiya talablari asosida ishlab chiqiladi[2]. P.N.Denisov antropotsentrik leksikografiyaning asosiy mezonlarini sanab o'tar ekan, uchta muhim jihat: «1) lug'at foydalanuvchisi – adresatga yo'nalganligi; 2) lug'aviy birlik – bosh so'zning lug'at maqolada tavsiflash samaradorligi; 3) lug'at maqola sarlavhasi – bosh so'zning ixcham va soddaligi»[3]ga diqqat qaratadi. Demak, o'quv lug'ati uchun uning kimga mo'ljallangani (foydalanuvchining yoshi), lug'at maqola sarlavhasi – bosh so'zning shakli va uning leksikografik izohi muhim rol o'ynadi.

V.I.Karasik o'quv lug'ati lug'at maqolasi xususida to'xtalar ekan, uning ta'lim tizimiga aloqadorligini unutmaslik lozimligiga diqqat qaratadi: «O'quv lug'ati ta'limning zaruriy vositasi, darslik, qo'llanmaning muhim tarkibiy qismidir. Shu bois o'quv lug'atdagi har bir maqola shu mavzuga oid ta'limiy matn hisoblanib, u bosh so'z haqidagi zaruriy tushunchalarni ixcham tarzda aks ettirishi, tayanch minimum vazifasini o'tashi kerak»[4], degan edi. Ya'ni, uningcha, lug'atda berilgan har bir izohga adresat – foydalanuvchi mansub ta'lim bosqichi darsligining bir parchasi sifatida qarash talab etiladi. Xuddi shuningdek, turkman maktablari uchun tuzilgan ikki tilli izohli lug'atlarda leksik birliklar semantizatsiyasi ustida izlanishlar olib borgan G.Z.Mamulina «lug'at maqolaning tarjima izoh – semantizatsiya qismida ta'rif, talqin aniq va izchil bo'lishi lozim. U izohlanayotgan bosh so'z, ya'ni o'zlashma so'zning ikkinchi tildagi ma'nosining aynan muqobili bo'lishi shart»[5], ekanini ta'kidlaydi.

Lug'at maqolaga matn turi sifatida yondashgan A.Soy esa uning bir paytda ham ma'lumotni uzatuvchi, ham qabul qiluvchi vazifasini zimmasiga olishiga diqqat qaratadi: «Leksikograf lug'at maqolani yozish jarayonida o'z layoqati, komptensiyasidan kelib chiqib lingvistik ma'lumotni taqdim etuvchi sifatida faoliyat yuritadi. Lug'at foydalanuvchisi esa mazkur ma'lumotlarni qabul qiladi va o'z bilim doirasi, layoqatida kelib chiqib o'zlashtiradi. Natijada kompe-

[1] Семантика русского языка: [учебное пособие для филологических специальностей университетов] / Л.А. Новиков. Москва: Высшая школа, 1982. –Б 6.

[2] Морковкин В. В. (1990), Основы теории учебной лексикографии, Москва. Морковкин 1990: 9.

[3] Денисов П. Н. (1993), Лексика русского языка и принципы ее описания, МоскваДенисов 1993: 215.

[4] Карасик В. И. (1992), Язык социального статуса, Москва.

[5] Мамулина Г. З. (1975), Лингводидактические основы семантизации лексики в толковом словаре русского языка для национальной туркменской школы: Автореф. дис. ... канд. пед. наук, Москва – С.22.

tensiyalar qarama-qarshiligi yuzaga keladi. Shu sababli leksikograf o‘quv xarakterdagi lug‘at maqolani tayyorlashda foydalanuvchining yoshi, bilim darajasini hisobga olishi shart»[1].

Lug‘at tuzuvchi lug‘at birligi – bosh so‘z semantikasini ochib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yar ekan, uning nutqiy reallashishi bilan bog‘liq barcha qirralarini yoritishni ko‘zlaydi, albatta. Lug‘at maqola arxitektonikasi shu maqsaddan kelib chiqib sodda yoki murakkab bo‘ladi. Masalan, E.I.Fozilovning Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan izohli lug‘ati lug‘at maqolasida lug‘at muallifi o‘z oldiga qo‘ygan vazifasidan kelib chiqib quyidagi komponentlarni ajratadi:

AVDAT [اودت] – jo‘nash; qaytish; qil- – qaytmoq, jo‘namoq: Va bu barchadin so‘ngra Nishapurg‘a avdat qildi. *Nasoyimul-muhabbat*, 229-T[2].

Ya’ni:

1) bosh so‘zning transliteratsiyasi: **AVDAT;**

2) bosh so‘zning nodir qo‘lyozma matn – Navoiy asarlaridagi arabcha yozuv shakli: [اودت];

3) bosh so‘zning ma’nosi yoki ma’nolari izohi: *jo‘nash; qaytish*;

4) bosh so‘zning birikuvchilari: – *qil- – qaytmoq, jo‘namoq;*

5) yozuvchi asarlaridan bosh so‘z ma’nolarini tasdiqlovchi illyustratsiya – misollar: *Va bu barchadin so‘ngra Nishapurg‘a avdat qildi*;

6) misol olingan manba nomi: *Nasoyimul-muhabbat;*

7) qo‘lyozmaning sahifasi yoki nashr qilingan manbaning varaqlari: 229-T.

Lug‘at maqolada bosh so‘zning dastlab atash ma’nosi keltiriladi. Agar bosh so‘z ko‘p ma’noli bo‘lsa, so‘zlarning mustaqil ma’nolari bir-biridan arab raqamlari bilan ajratilib, ularning har biriga izoh beriladi; ma’no nozikliklarini ochib berish uchun misollar keltiriladi. Masalan, **AVJ** [اوج] so‘zining lug‘atda uch ma’nosi izohlanadi va ularning har biriga izoh keltiriladi:

AVJ [اوج] – **1.** baland; yuqori; yuksak:

To ki bir kun tushti daryo uzra mavj,

Kemaga yer gah hazizu goh avj. *Lisonut-tayr*, 84-T;

Ayon bo‘lmayin bahri zotingga mavj,

Aning mavjiga ne haziz-u ne avj. *Saddi Iskandariy*, 47-T;

2. biron narsaning eng yuqori nuqtasi, yuksak daraja, cho‘qqi:

Ne oy davri chatri falak farsoyingcha,

Ne ko‘k avji xoki kafi poyingcha. *Munshaot*, 14-173;

3. eng baland cho‘qqi, nuqta; zenit:

Ikki guhar o‘rni bo‘ldi bir durj,

Ikki kuyosh avji bo‘ldi bir burj. *Layli va Majnun*, 303-T[3];

Bosh so‘z alohida qo‘llanmagan ya’ni erkin yoki turg‘un birikuvlar – izofa, idioma, frazeologizmlar, qo‘shma so‘zlar tarkibida kelgan bo‘lsa, o‘sha so‘z bilan birga birikma tarzida keltirilib, izohlanadi. Yuqoridagi maqolada uchinchi ma’no (eng baland cho‘qqi, nuqta; zenit) izohidan keyin **~ tild belgisi** bilan tarkibida bosh so‘z ishtirok etgan turli erkin yoki turg‘un birikuvlar – izofa, idioma, frazeologizmlar, qo‘shma ot va fe’llar izohiga bag‘ishlangan lug‘at maqolachalar keltirilib, uning jumladagi izohi beriladi va illyustatsiya havola qilinadi.

Bosh so‘z, ya’ni **AVJ** jumlaning qaysi qismiga qo‘shilganiga ko‘ra lug‘at maqolachalar quyidagicha joylashadi. Avval bosh so‘z jumla boshida kelgan – *avji gardun, avji moh, avji muqarnas, avji rif’at, avji saltanat, avji sipehr, avji xurshid, avji sharaf, avji hayot, avji haram, avji hashmat, avji haqiqat, avj ohang* kabi turg‘un birikmalarga berilgan talqin keltiriladi:

~ i gardun - falakning eng yuqori nuqtasi:

Avji gardun xoki roh o‘ldi anga,

Bog‘i jannat jilvagoh o‘ldi anga. *Lisonut-tayr*, 140-T;

~ i moh - mohlar yuksagi; oyning osmondagi eng yuqori nuqtasi:

Bergil anga avji mohdin to mohi

Bil kim ne ki bor ersa aning dilxohi. *Majolisun-nafois*, 248-T;

~ i muqarnas – osmon, ko‘k gumbazi:

Bo‘lub sakf o‘rnig‘a avji muqarnas,

Bisoti uzra yoydi charxi atlas. *Farhod va Shirin*, 110-T;

~ i rif’at – yuqori martaba, yuksak daraja:

Yuz ellik kari avji rif’at anga,

Yana muncha dag‘i zaxomat anga. *Saddi Iskandariy*, 243-T;

Naqldur kim avji rif’at kavkabi

Mihtari a’zam Sulaymoni nabi. *Lisonut-tayr*, 162-T;

~ i saltanat – saltanatning eng yuqori pog‘onasi:

Birisi taxti ma’dalat shohi,

Birisi avji saltanat moxi. *Sab’ai sayyor*, 10-T;

~ i sipehr – osmon cho‘qqisining eng yuksak o‘rni:

Ham avji sipehr taxtgohing,

Ham nuqtai mehr xoki rohing. *Munshaot*, 14-176;

~ i xurshid – quyoshning eng yuqori cho‘qqisi:

Avji xurshid maqom o‘lsun anga,

Jomi Jamshid mudom o‘lsun anga. *Favoyid-*

[1] Александр Цой. Требования к словарной статье как тексту (результаты научного анализа словарных статей на служебные слова). Acta Universitatis Lodziensis. Folia Linguistica Rossica 3, 2007. – P.155-161

[2] Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. K 1. – Toshkent: NISO POLIGRAF, 2013. – 1008 b. – Б. 23.

[3] Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. K 1. – Toshkent: NISO POLIGRAF, 2013. – 1008 b. – Б. 23.

ul-kibar, 696-T;

~ i sharaf – ulug‘lik martabasi, buyuklikning yuqori cho‘qqisi:

Avji sharaf uzra oftob o‘ldi hayo,

Bo‘stoni saodatg‘a saxob o‘ldi hayo. *Nazmul-javohir*, 15-145;

~ i hayot – ayni hayot cho‘qqisi:

To taning avji hayot ustidadur sen xok bo‘l,

Istasang kim avj tutkay sen taning bo‘lg‘anda xok. *G‘aroyibus-sigar*, 260-T; 23

~ i haram – eng muqaddas makon; Ka’ba:

Ko‘yining devori ustumga yiqilsa yaxshiraq,

Andin ayru jilvagohim bo‘lg‘ucha avji haram. *Favoyidul-kibar*, 388-T;

~ i hashmat – shuhrat avji, shuhratning eng yuqori nuqtasi:

Necha avji hashmat uza fosh sen,

Manga nisbat ichra qarindosh sen. *Saddi Iskandariy*, 511-T;

~ i haqiqat – haqiqat osmoni; haqiqatning yuqori darajasi:

Nafs-u havo deviga bermakka tob,

Avji haqiqat falakida shihob. *Hayratul-abror*, 136-2;

~ ohangini qil- – baland osmon cho‘qqisiga taratmoq; intilmoq:

Quyosh chun qilib avj ohangini

Yorutti yana charx avrangini. *Saddi Iskandariy*, 135-T[1];

Keyin esa *bermish avj, avj olmak, tilarsen avj, avj topmas, tutqan bo‘lsa avj, topti avji kamol* kabi bosh so‘z jumla oxirida kelgan izofa, idioma, frazeologizmlar, qo‘shma ot va fe’llar izohiga bag‘ishlangan lug‘at maqolachalar keltiriladi:

~ ber- – yuqori darajaga, yuksak martabaga yetkazmoq; eng yuqori yutuqlarga erishtirmoq:

Ruh ul nurdurur kim Haq anga bermish avj,

Nafs zulmatqa qolib qilmish anga poya xubut. *Favoyidul-kibar*, 276-T;

~ ol- – kuchaymoq, zo‘raymoq:

Ishqdin kuydi tanimda har churuk bo‘lg‘an so‘ngak,

Kim ko‘rubtur mundaq avj olmak chaqin xoshokdin. *Navodirush-shabob*, 466-T;

~ tila- – yuqori martaba va yuksak o‘ringa intilmoq, mayl etmoq:

Tuz bo‘l o‘ktek gar tilarsen avj yo kim egridur,

Davr xar bir go‘shadin bo‘g‘zig‘a solibtur kerish. *G‘aroyibus-sigar*, 214-T;

~ top- – yuksak o‘rin olmok, yuqori daraja va martabaga yetmoq:

Pyh isyon tufragidin avj topmas o‘yla kim

Bir malak jurm aylaban oliy makonidin tushub. *Badoyiul-vasat*, 39-T;

~ tut- – kuchaymoq, ko‘paymoq:

Bahri g‘ufroningg‘a tushkan chog‘da mavj

Jurm arir har necha tutqan bo‘lsa avj. *Lisonut-tayr*, 18-T;

Avj tutub shu’lai jabborliq,

Mavj urub lujjai qahhorliq, *Hayratul-abror*, 7-28;

~ i kamol top- – kamolot cho‘qqisiga erishmoq:

Necha mehrdek topti avji kamol

Falak davridin topti oxir zavol. *Tarixi muluki ajam*, 16-228[2].

Ko‘rinib turibdiki, mazkur lug‘at maqolada bosh maqsad ***AVJ*** leksemasining Alisher Navoiy ijodida necha marta, qaysi asarida qo‘llangani emas, Navoiy yashagan davr – XV asrda qanday sematik xususiyatlarga ega bo‘lganini ochib berish. Shu sababli lug‘at muallifi asosiy e’tiborini *AVJ* leksemasining turli paradigmatik va sintagmatik munosabatdagi leksik, morfologik birliklar qurshovida kelganiga diqqatini qaratadi. Ularning har birini kichik-kichik lug‘at maqolachalarda yoritadi. Har bir ma’no talqini uchun yozuvchi ijodidan illyustratsiya keltiradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda bosh so‘zni leksikografik talqin qilishning quyidagi mezonlarini ajratamiz:

1. Bosh so‘zning semantik xususiyati, bosh va hosila ma’nolarini yoritish. Lug‘at turi, hajmi, maqsadidan kelib chiqib semantizatsiyaning ikki ko‘rinishi farqlanadi: a) qisqacha sharh tarzida izohlash (umumiy o‘quv izohli lug‘atlarda, kichik lug‘atlarda); b) batafsil, keng tushuntirish orqali izohlash (maxsus o‘quv izohli lug‘atlarda);

2. Bosh so‘zning paradigmatik munosabati – sinonimlari, graduonimlari, antonimlari; sintagmatik munosabati (sintaktik birikuvchilari) orqali izohlash;

3. Ensiklopedik ma’lumot, ta’rif, tavsif tarzida izohlash (o‘quv ensiklopedik, terminologik lug‘atlarda);

4. Bosh so‘zning grammatik shakllari va variantlarini izohlash (illyustratsiyalar asosida) va hk.

Lug‘at maqola bosh so‘zning semantik maydoni – atash, vazifa, ifoda semalarini nafaqat tushunish, balki undan nutqida o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini ham beradi. Shu sababli izoh vokabula – so‘z yoki jumlaning nutqda qanday qo‘llanishi, birikuvchilari haqida tasavvur hosil qilish uchun izohli lug‘atlarda doimo illyustratsiya – misollar keltiriladi.

Shu bilan birga lug‘at maqola bosh so‘zning ma’nosini foydalanuvchi yaxshiroq tushunishi va tanib olishiga yordam berish maqsadida kelib chiqishi yoki tarixiy taraqqiyoti haqida ma’lumot berilishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan semantizatsiya

[1] Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. K 1. – Toshkent: NISO POLIGRAF, 2013. – 1008 b. – Б. 25.

[2] Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. K 1. – Toshkent: NISO POLIGRAF, 2013. – 1008 b. – Б. 28

til o‘rganish – ona tilini ham xorijiy tilni ham o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. U tom ma’noda bosh so‘zning tushunilishi va amalda qo‘llanilishi, alal oqibat, o‘quvchining so‘z boyligini o‘stirish, yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali yordam beradi.

Rezyume. Har qanday lug‘atdan foydalanuvchi undan o‘zi izlayotgan so‘zning obyektiv talqinini topmas ekan, bu lug‘atning qiymati yuqori bo‘lmaydi. Leksikografning asosiy vazifasi lug‘at maqoladagi bosh so‘z talqiniga foydalanuvchining oson tushunishi va o‘zlashtirishini inobatga olib, obyektiv, kompleks va tizimli yondashishidir. Mazkur maqolada izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar xususida so‘z boradi.

Resume. Until any user of a dictionary finds an objective interpretation of the word they are looking for, the value of that dictionary will not be high. The lexicographer’s main task is an objective, comprehensive, and systematic approach to interpreting the keyword in the dictionary entry, taking into account the user’s ease of understanding and assimilation. This article examines the requirements for lexicographic semantics in explanatory-type educational dictionaries.

Резюме. До тех пор, пока пользователь любого словаря не найдет в нем объективную интерпретацию искомого слова, ценность этого словаря не будет высокой. Основная задача лексикографа – объективный, комплексный и системный подход к интерпретации ключевого слова в словарной статье, учитывая легкость понимания и усвоения пользователем. В данной статье рассматриваются требования к лексикографической семантизации в учебных словарях толкового типа.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

MORFEM O‘QUV LUG‘ATINING AMALIY JIHATLARI

Boysariyeva Saodat,
Termiz davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi o‘qituvchisi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik analiz qilish borasida qator ilmiy kuzatishlar, tajribalar, loyihalar amalga oshirilmoqda. Dunyo tillarining hech biri yagona standart modelga ega emas. Tilning ko‘p ma’noliligi va uning lingvomadaniy xoslanishi uning ma’naviy fenomen sifatida baholash lozimligini ko‘rsatadi. Muayyan darajada tilning adabiy til normalari, grammatik qoliplari yaratilgan bo‘lsa-da, buni tilning kuzatishlar natijasida erishilgan tajriba natijalari sifatida baholash mumkin. Biroq til etnik xalqning, ijtimoiy guruhning, jamiyat qatlamining asosiy kommunikativ vositasi sifatida hamisha adabiy til normalariga amal qilmaydigan lisoniy kodlar orqali rivojlanishda davom etaveradi. Albatta, til juda tezlik bilan o‘zgarishga uchramaydigan hodisa sifatida yillar davomida jonli muloqot tilining og‘zaki va yozma shakllarida o‘z ifodasini topadi. Shunday bo‘lsa-da tabiiy tilni qayta ishlash uchun unga mos ravishda matnlarni tarjima va tahrir qilish metodlari kompyuter texnologiyalari yordamida kundan kun yanada takomillashib bormoqda. Bunda biz kompyuter lingvistikasi va korpus texnologiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida ta’kidlashimiz o‘rinli. A.V.Chemishov olib borgan tadqiqotida so‘z yasovchi affikslarni muayyan